



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz/>



KRAUDFANDING PLATFORMASIDA AYOLLAR INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Bozorova Saxobat Abdujapparovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Inson resurslarini boshqarish” kafedrası

Katta o'qituvchisi, PhD

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a7

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasini qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan bo'lib, shuningdek, O'zbekistondagi ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar o'rtasida ayollar ulushi, O'zbekistonda ishsizlar o'rtasida gender tafovut, O'zbekistonda ayollar rahbarlik qilayotgan sohalar, sanoatning turli sohalarida ayollar rahbarlik qilayotgan tadbirkorlik turlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kraudfanding, platforma, inson kapitali, ta'lim, gender tafovut, ishsizlik, «ayollar daftari», ayol rahbarlar.

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА НА КРАУДФАНДИНГОВОЙ ПЛАТФОРМЕ

Бозорова Сахобат Абдужаппаровна

Ташкентский государственный экономический университет

Кафедра "Управление человеческими ресурсами"

Старший преподаватель, PhD.

Аннотация: В статье рассматриваются возможности использования краудфандинговой платформы для развития женского человеческого капитала в Узбекистане, а также процент женщин среди учащихся образовательных учреждений Узбекистана, гендерный разрыв среди безработных в Узбекистане, а также изучены виды предпринимательства, возглавляемого женщинами в различных отраслях промышленности Узбекистана.

Ключевые слова: краудфандинг, платформа, человеческий капитал, образование, гендерный разрыв, безработица, «женский блокнот», женщины-лидеры.

DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S HUMAN CAPITAL ON THE CROWDFUNDING PLATFORM

Bozorova Sakhobat Abdujapparovna

Tashkent State University of Economics

PhD, "Management of human resources" department

Abstract: The article discusses the possibilities of using a crowdfunding platform for the development of women's human capital in Uzbekistan, as well as the percentage of women among students of educational institutions in Uzbekistan, the gender gap among the unemployed in Uzbekistan, and also studied the types of entrepreneurship led by women in various industries in Uzbekistan.

Keywords: crowdfunding, platform, human capital, education, gender gap, unemployment, "women's notebook", female leaders.

Kirish

Inson va uning qobiliyatlari, bilim, malakasi har qanday jamiyat farovonligi va davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omiliga aylangan bugungi kunda O'zbekistonda ham inson kapitali, shubhasiz, ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki inson kapitalini rivojlantirish – innovatsion iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, investitsiyalar, global axborot tizimlari, eng yangi texnologiyalar va biznesning yangi shakllarini rivojlantirishning zarur sharti sanaladi. Inson potensialini tashkil etuvchi turli xususiyatlar ichida, inson kapitali aynan daromadlarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarni ifodalaydi, shu jihatdan inson kapitali ishchining maxsus ta'lim, kasb-hunarga tayyorlash va ishlab chiqarish tajribasi asosida to'plangan bilimlari, ularni amalda qo'llashi va mahoratini o'z ichiga oladi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xalqqa munosib turmush tarzini yaratib berishga kun tartibidagi asosiy masala sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmonida “Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish – strategiyaning bosh maqsadidir”¹, deb belgilab berildi.

Shu bilan birga, 2019-yilning may oyida ilm-fan va oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosiga bag'ishlangan yig'ilishda Prezidentimiz mazkur sohaga oid davlat dasturlarini shakllantirish va markazlashgan tartibda moliyalashtirish orqali ilm-fanni tubdan rivojlantirish, yuksak natijadorlikka yo'naltirilgan ixtisosliklar bo'yicha milliy laboratoriyalar

¹ Sh.M.Mirziyoyev. “2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” Farmon. –T. 2018-yil 21 sentyabr

tizimini yaratish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, xalqaro reytinglarda mamlakatimiz fani nufuzini ko‘tarish bo‘yicha fikr yuritar ekan, “...Bu ishlardan asosiy maqsad mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish, xom ashyo va uni qayta ishlash bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi, qolaversa, ishlab chiqarishda qo‘shimcha qiymat olish uchun ham innovatsiyalar kerak. Shu bois ilm-fan taraqqiyotimizning muhim yo‘nalishi, tayanchi bo‘ladi”², – deb ta’kidlab o‘tdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Inson kapitalining nazariy va metodologik asoslari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Muammoni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan S.P.Vigurskaya, A.I.Dobrinin, S.A.Dyatlov, I.V.Ilyinskiy, M.A.Kazaryan, R.I.Kapelyushnikov, A.P.Kolyadin, B.V.Korneichuk, Yu.A.Korchagin, A.V.Koritskiy, M.M.Kritskiy, S.A.Kurganskiy, O.V.Losev, V.I.Martsinkevich, L.G.Simkina, V.G.Smirnov, I.V.Soboleva, I.V.Skoblyakova, S.G.Strumilin, T.L.Sudova, G.N.Tuguskin, K.A.Ustinova, T.R.Xannanova, E.D.Tsyrenova, O.S.Chechina, T.A.Shterzer, M.A.Shchebratyx, A.Smit, D.Rikardo, K.Marks, M.A.Armstrong, G.Bekker, J.Ben-Porat, M.Blaug, G.Bouen, A.Bruking, J.Bun, E.Denison, D.V.Jogenson, R.Dornbusch, R.Lukas, P.Rohmer, M.Varner, W.Petty, L.Valras, J.Kendrick, D.Litie, G.D.McLeod, J.Mill, J.Minser, A.Marshall, F.Machlup, R.Solow, T.Styuart, F.V.Taylor, L.Tyurov, J.fon Tunen, T.Uitshteyn, I.Fisher, V.Far, J.Xiks, L.Xendriks, A.Fliaster, T.Shults, L.Edvidson, L.Fraumeni va boshqa olimlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir³.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ham Q.X.Abduraxmonov, A.O‘lmasov, A.Vahobov, M.Saidov, I.A.Bakieva, M.Q.Pardaev, B.A.Abdukarimov, K.Saidov, M.Muxammedov, D.Aslanova, R.Seytmuradov, S.Isxakovalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilib, olimlar o‘z tadqiqotlarida inson kapitali mazmun mohiyati yoritib berishgan⁴.

Inson kapitali tushunchasini ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar o‘z tadqiqotlarida o‘rganganlar. Birinchi marta 1961-yilda bu iborani amerikalik Teodor Shuls ishlatgan va uning izdoshi G.Bekker 1965 yildan buyon inson kapitaliga qo‘yilmalar samaradorligini asoslab, inson xulq-atvoriga iqtisodiy yondashuvni shakllantirgan holda bu g‘oyani ishlab chiqqan. Inson kapitali nazariyasi asoslarini yaratgani uchun ular iqtisod bo‘yicha Nobel mukofotlari bilan taqdirlanganlar (1979-yilda Teodor Shulsga, 1992 yilda G.Bekkerga). Teodor Shuls inson kapitali nazariyasi rivojlanishining dastlabki bosqichi shakllanishiga, uning ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi va ommalashishiga ulkan hissa qo‘shdi. U birinchilardan bo‘lib ishlab chiqarish omili sifatida inson kapitali tushunchasini kiritdi. Va u inson kapitalining sanoat

² Sh.M.Mirziyoyev “Ilm-fan va oliy ta’lim sohasini rivojlantirish” bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosiga bag‘ishlangan yig‘ilishi. 2019-yil 28-may

³ Дорофеев А.Ф. Развитие человеческого капитала в аграрном секторе России. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Белгород. 2018 г. - 404 стр.

⁴ Sharipov M.L., Koshanova N.M. Inson kapitali mohiyati, uning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00728 Academic Research, Uzbekistan 1259 www.ares.uz

va postindustrial iqtisodiyotning asosiy dvigateli va poydevori sifatidagi rolini tushunish uchun juda ko‘p ish qildi⁵.

Bizning fikrimizcha, **inson kapitali** –bu shaxsning nomoddiy boyligi bo‘lib, qonunda ta’qiqlanmagan faoliyat bilan shug‘ullanishida foydalanishi mumkin bo‘lgan, o‘ziga (egasiga) daromad (foyda) keltiruvchi, genetik va o‘zlashtirilgan, ijobiy sifat va miqdor xususiyatlariga ega bo‘lgan barcha komponentlar majmuasidir.

Tadqiqot metodologiyasi

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma’lumotnomalari va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, makroiqtisodiy tahlil, guruhlash, eksperiment, dekompozitsiya, adaptiv usullar, innovatsion va integratsion yondashuvlar, O‘zbekistond ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasini qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashda foydalaniladi.

Tahlil va natijalar

Inson kapitalini rivojlantirish – bir kunlik ish emas. Mazkur missiya kompleks yondashuv hamda uzoq muddatli, muhimi, aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni talab qiladi. Bu borada tayyor yechimlar yo‘q. Har qaysi mamlakat o‘z yo‘li va yo‘nalishini mustaqil tarzda belgilab olmog‘i darkor. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda O‘zbekistonda ayollar bilan manzilli ishlash mexanizmi joriy qilinmoqda. Unga ko‘ra, xotin-qizlar inson kapitalini rivojlantirish muammolari o‘rganilib, tizimli hal qilinishi kerak. Bugungi kunda barcha ma’lumotlar “Ayollar daftari” deb nomlanuvchi maxsus idoralararo elektron bazalarda jamlanib, tahlil qilinadi va nazoratga olinadi. “Ayollar daftari” mohiyatan aholining yordamga muhtoj qatlamlarini ta’lim, sog‘liqni-saqlash, uy-joy va bandlik masalalariga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksini ifoda etadi.

“Ayollar daftari”da qayd etilganlarning 59 foizini ishsiz, 8,5 foizini boquvchisini yo‘qotgan, 6,7 foizini ijtimoiy himoyaga muhtoj I va II guruh nogironligi bor ayollar tashkil qiladi. Bundan tashqari, 5,4 foizi huquqiy yordamga, 1 foizi uy-joyini ta’mirlashga muhtoj ekani, 2,1 foizi noturar joylarda istiqomat qilayotgani, 1,9 foizi bir va undan ortiq nogiron farzandni yolg‘iz tarbiyalayotgani aniqlangan. SHuningdek, hozirgi kunda 44 ming nafardan ziyod ayollar tibbiy himoyaga, 36 ming 394 nafari esa kasb-hunar o‘rganishga muxtoj. Qolaversa, xotin-qizlarining 27,6 foizi tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki rivojlantirish uchun kredit olishda yordam so‘ragan. Respublikada tadbirkor ayollar ulushini yanada oshirish, ular uchun qulay biznes muhitini yaratish respublikamizda ayollar inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Zero, bu yo‘ldagi maqsadli chora-tadbirlar pirovardida xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

⁵ Навруз-Зода Б.Н., Шомиев Г.У. Исторические предпосылки развития теории человеческого капитала. Academy № 11 (14), Россия, Москва, 2016, ст.19.

Inson kapitalini rivojlantirishning gender jihatlarini o'rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega, chunki u ta'limni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va umuman ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muammolar va tendensiyalarni ko'rish imkonini beradi. O'zbekistonda 2020-2021-o'quv yillarida ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar o'rtasidagi gender tenglik jihatlarini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin (1-jadval):

1-jadval

O'zbekistondagi ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar o'rtasida ayollar ulushi⁶

Ko'rsatkichlar (2020-2021)	Jami	Erkaklar	Ayollar	Ayollar ulushi, %da
Kollej talabalari	95216	11720	83496	87,7
Akademik litsey talabalari	19820	12296	7524	37,9
OTM talabalari soni	571512	311486	260026	45,5
Tayanch doktoranturada tahsil oluvchilar	3880	2525	1355	34,9

Yuqoridagi jadval orqali ma'lum bo'ladiki, O'zbekistondagi ta'lim muassasalarida tahsil oluvchilar o'rtasida erkaklarga nisbatan ayollar ulushi kamroq. Masalan, akademik litseyda ayol talabalar ulushi 37,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, OTMlarda tahsil oluvchilar o'rtasida ayollar ulushi 45.5 foizga etgan. Tayanch doktorantura bosqichida esa bu ko'rsatkich 34.9 foizni tashkil etmoqda. Faqatgina kollejlarda tahsil oluvchi ayollar soni erkaklarga nisbatan 71776 kishiga ko'p bo'lib, bu 87.7 foizni tashkil etadi. Demak, bundan hulosalar qilish mumkinki, respublikamizda qizlar ma'lum bir sohada oliy ma'lumotli bo'lishdan ko'ra kasb-hunarga o'qishning o'zi bilan cheklanishmoqda.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2022-yil yakunida O'zbekistonda jami ayollar soni 17527137 kishini tashkil etib, shundan mehnatga layoqatli yoshdagilari soni 9968571 kishini tashkil etadi.⁷


O'zbekistonda 2018-yildan beri ishsizlik darajasidagi gender tafovuti sezilarli darajada oshdi, 2021-yilda ayollarning ishsizlik darajasi erkaklarnikidan deyarli ikki baravar ko'p (1-rasm).

Ayollar inson kapitalini rivojlantirish va ularning teng huquqliligini ta'minlash mamlakatimizda ustuvor vazifalardan hisoblanib, 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, so'nggi yillarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng

⁶ O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

⁷ O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi.



1-rasm. O'zbekistonda ishsizlar o'rtasida gender tafovut⁸

Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi.


O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga etib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga etdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi.

Davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1300 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda 45 nafar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida 39 nafar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida 207 nafar ayol rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga 2019-yilda bo'lib o'tgan saylovlarda ro'yxatdan o'tgan 21435000 nafar

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

saylovchining qariyb 50 foizi yoki 10825641 nafari xotin-qizlardir. Ushbu saylovlarda ko‘rsatilgan nomzodlarning 41 foizi xotin-qizlar bo‘lib hisoblanadi.



2-rasm. O‘zbekistonda ayollar rahbarlik qilayotgan sohalar⁹

Mamlakatimizda boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga etdi (2-rasm).


Ma'lumki, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, inson kapitalini rivojlantirish, salomatligini mustahkamlash va eng muhimi, ular uchun munosib turmush sharoitini yaratish ijtimoiy sohaning muhim yo‘nalishlaridandir. Mamlakatimizda xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish ya'ni tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 19-noyabr Ayollar tadbirkorligi kuni sifatida nishonlanadi. Shuningdek, 2021-yil 24-aprelda “Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori tasdiqlandi.

2021-yilda mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratildi.¹⁰

Ayollar inson kapitalini rivojlantirish doirasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o‘rniga ijobiy ta'sir ko‘rsatib, Jahon bankining Ayollar, biznes va qonun indeksida O‘zbekiston Respublikasi 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo‘yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog‘onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o‘rinni egalladi.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 SQ-297-IV-son

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 SQ-297-IV-son



3-rasm. Sanoatning turli sohalarida ayollar rahbarlik qilayotgan tadbirkorlik turlari¹¹

Ayollar tadbirkorligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2021-yilda kichik korxona va mikrofirmalarga rahbarlik qilgan ayollar sanoat sohasining eng ko'pi kiyim-kechak va to'qimachilik yo'nalishida 1836 nafar yoki jami sanoatda rahbarlik qilayotgan ayol tadbirkorlarning 33.1 foizi, oziq-ovqat sanoatida 1761 nafar yoki 31.8 foizi, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatida 410 nafar yoki 7.4 foizi, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatida 198 nafar yoki 3.6foizini hamda mebel ishlab chiqarish sanoatida 192 nafar yoki 3,5 % ni tashkil etdi (3-4-rasmlar).


2021-yilda faoliyat ko'rsatgan tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 36475 tani (yoki jamiga nisbatan 11,3%) tashkil etdi. Hududlar bo'yicha eng ko'pi Toshkent shahri (9764 ta), Toshkent viloyati (4760 ta), Samarqand viloyati (2974 ta) va Navoiy viloyati (2544 ta) hissalariga to'g'ri kelmoqda.¹²

Ta'kidlash joizki, tadbirkorlik sohasida gender tengligiga erishish va ayollar huquqlarini kengaytirish 2015-yilda jahon yetakchilari tomonidan qabul qilingan 17ta Barqaror rivojlanish maqsadlarining ham ajralmas qismidir. BMTTD ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va gender tengligini ta'minlashda savdoning ahamiyatini e'tirof etadi. Savdo, ayniqsa, xotin-qizlar hayotini yaxshilash, yangi ish o'rinlarini yaratish, iste'molchilarning tanlovini kengaytirish imkoniyatini beradi. Chunki, ayollar va qizlarning barcha maqsadlarda huquqlarini ta'minlash orqaligina adolat

¹¹ O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/32925-ayollar-rahbarligidagi-kichik-tadbirkorlik-subyektlarining-asosiy-ko-rsatkichlari>

¹² O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/24153-tadbirkor-ayollar-qaysi-hududda-ko-proq-faoliyat-olib-borishini-bilasizmi>

va inklyuzivlikka, hamma uchun ishlashdigan iqtisodiyotga va farovon ijtimoiy hayotga erishish mumkin.



4-rasm. Ayollar rahbarlik qilayotgan tadbirkorlik turlari, foizda¹³

Ayollar tadbirkorligi va biznes faoliyatini rivojlantirish uchun kraudfanding platformasi loyihalarni moliyalashtirishda mablag'larni jalb qilish uchun qo'shimcha vosita sifatida qaralishi mumkin. Chunki, kraudfanding – bu turli shaxsiy xayriyalar to'plami, bu usul pul yig'ish uchun o'z veb-saytini yaratish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar uchun ham mos keladi. Kraudfanding platformasi orqali investorlar ya'ni homiyalar elektron ro'yxatdan o'tadilar va to'lovlarni amalga oshiradilar. Kraudfandingning mablag' yig'ish faoliyatining boshqa usullaridan afzalligi moliyaviy jarayonlarning shaffofligi va samaradorligi bo'lib, bu nafaqat jismoniy shaxslarni, balki tashkilotlarni ham jalb qiladi.

O'zbekistonda turli xil kraudfanding platformalari mavjud bo'lib, ularning har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. O'zbekistong kirib kelgan mashhur platformalardan biri bu Crowdrise platformasidir. Crowdrise global kraudfanding platformasi bo'lib, u odamlarga turli maqsadlarda, jumladan, startapni rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqish va boshqalar uchun pul to'plash imkonini beradi. Crowdrise foydalanuvchilar uchun qulay platformani taklif etadi, jumladan, moliyalashtirish manbalari, venchur kapitalistlari va boshqalar. Bundan tashqari, Crowdrise startaplarga pul to'plashda yordam berishda ishonchli platforma hisoblanib, bu platforma loyiha mualliflari va investorlar uchun ham qulay imkoniyatlarga ega.

O'zbekistonda yana bir mashhur kraudfanding platformasi Indiegogo platformasidir. Indiegogo – global kraudfanding platformasi bo'lib, foydalanuvchilarga turli maqsadlarda, jumladan, mahsulot ishlab chiqish, startapni rivojlantirish va boshqalar uchun pul to'plash imkonini beradi.

¹³<https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/32925-ayollar-rahbarligidagi-kichik-tadbirkorlik-subyektlarining-asosiy-ko-rsatkichlari> sayti ma'lumotlari asosida tuzildi

Shuningdek, Kickstarter kraudfanding platformasi foydalanish uchun qulay interfeysni taqdim etadi va ko‘plab funksiyalar mavjud. Misol uchun, Kickstarter foydalanuvchilarga boshqa platformalarga qaraganda kengroq auditoriya ko‘rishi mumkin bo‘lgan investor kompaniyalarni jalb qilishga imkon beradi.

Jahon miqyosida esa Kickstarter va Indiegogo kabi kraudfunding veb-saytlari loyihalari uchun sarmoya kiritishga umid qilayotgan yuz minglab odamlarni jalb qiladi. 2019-yildan boshlab, crowdfunding platformalari orasida Kickstarter mashxurlikka chiqib oldi, chunki bu eng katta kaundfunding platformasi. Kickstarter 2009-yilda tashkil etilganidan beri sayt 160,000 dan ortiq loyihalarni moliyalashtirdi, ularning barcha loyihalarida 4,2 milliard dollardan ortiq mablag‘ ajratilgan. Indiegogo dastlab kraudfunding saytidan boshlanib, dastlab mustaqil filmlar uchun pul to‘plashga qaratilgan edi, ammo 2007-yilda ishga tushirilganidan bir yil o‘tib har qanday toifadagi loyihalarni qabul qila boshladi.

Indiegogo Kickstarterga qaraganda moslashuvchan platforma sifatida qaraladi, chunki u qo‘llab-quvvatlovchilarga moslashuvchan modellarni boshqarish imkoniyatini beradi. Ya'ni, bu ikkala kraudfunding platformalari orasidagi eng muhim farq. Kickstarter investor kompaniyani moliyalashtirish maqsadiga erishganidan keyingina oshkor qiladi, Indiegogo esa kompaniyani moliyalashtirish imkoniyatiga ko‘ra raqobatlashishilariga imkoniyat beradi.

Eng yaxshi kraudfanding platformalari past to‘lovlarni, potensial investorlarning katta auditoriyasini taklif qiladi va turli kompaniyalar va hattoki jismoniy shaxslarning moliyalashtirish imkonini beradi. Shuningdek, ular boshlang‘ich kreditlar bilan raqobatbardosh bo‘lgan stavkalarni taklif qilishadi va turli xil potensial loyihalarni namoyish etadilar. Va nihoyat, ular loyihalarni moliyalashtirish maqsadlariga erishishda yordam berish tajribasiga ega. Kichik korxonalar ham jamiyatga foydali bo‘lgan loyihalari evaziga kraudfanding orqali pul to‘plashlari mumkin. Startaplar va ko‘proq yangi tashkil etilgan kompaniyalar yangi mijozlarni jalb qilish bilan birga Internetda mablag‘ to‘plashlari mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, kraudfanding – kompaniyalar kapitallashuvini oshirish innovatsion texnologiyasi hisoblanadi. Kraudfanding texnologiyasi loyihani amalga oshirish uchun keng doiradagi odam(investor)larning mablag‘larini jalb qilishga asoslangan. Ularda qiziqish uyg‘otgan g‘oya mualliflarini qo‘llab-quvvatlash uchun pul yoki boshqa manbalarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradilar. Internet kommunikatsiyalari bunday kraudfandingni tashkil qilish uchun ideal maydon ekanligi isbotlangan. Ushbu samarali texnologiya paydo bo‘lishi tufayli biznes nafaqat investitsiya loyihalariga pul mablag‘lari jalb qilish, balki ularni ilgari surish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Shu sababdan, ayollar inson kapitalini rivojlantirish va tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda eng shaffof va adolatli jarayon sifatida kraudfanding platformalari tan olinmoqda.

Kraudfanding platformasidan foydalanishda qoida tariqasida kraudfanding loyihasi uchun investitsiyalarning ma'lum bir tugash sanasi belgilanadi. Muallif shu vaqt ichida to'planishi kerak bo'lgan miqdordagi mablag'ni ham ko'rsatadi. Bu orqali, investor o'z mablag'larini qaerga va qancha miqdorda ketayotganligini ko'rib turadi. Buning evaziga ular kelajakdagi foydaning bir qismini yoki jami kiritgan investitsiyasini oladi. Ba'zi loyihalar xayr-ehson ko'rinishida bo'lishi ham mumkin.

Odatda startapni boshlash haqida gap ketganda kraudfanding platformasi ishlatiladi. Kraudfanding atamasi 2006-yilda paydo bo'lib, uning muallifi jurnalist Jeff Xou hisoblanadi. Kraudfanding platformasi orqali loyihalarni moliyalashtirish dastlab musiqa sohasida amalga oshirilgan bo'lsada, uning soddaligi va samaradorligi ushbu texnologiyani boshqa sohalarda, jumladan startaplarni moliyalashtirishda keng qo'llanilishiga turtki berdi.

O'zbekistonda kraudfanding texnologiyasidan foydalanishda loyihani qo'llab-quvvatlovchilar u yoki bu foyda olishlarini yoki unga bepul sarmoya kiritishni kutishlari mumkin. Ta'sischi ular bilan qanday kelishuviga qarab, kraudfandingning bir qancha asosiy turlari mavjud, ular quyidagilar:

1. Xayr-ehsonlar yoki donatelar asosida (Donation based Crowdfunding) – ushbu turdagi mablag' faqat notijorat va shahsiy loyihalar uchun mo'ljallangan;


2. Haq evaziga (Rewards based Crowdfunding) – loyiha ishtirokchilari qimmatbaho sovg'alarni olishadi, sotishdan oldingi bosqichdagi kelishuvga asosan;

3. Qarz kapitalini jalb qilish bilan (Debt based Crowdfunding) – loyiha foydasininig foizida qaytarib berish evaziga sarmoyalar kiritiladi;

4. Aksiya evaziga (Equity based Crowdfunding) – loyihadagi ulush evaziga pul mablag'i.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, ommaviy moliyalashtirishning bir nechta shakllari mavjud, jumladan, mukofotga asoslangan kraudfanding, kapitalga asoslangan kraudfanding, xayriyaga asoslangan kraudfanding va kreditga asoslangan kraudfanding (Agraval va boshq., 2014; Belleflamme va boshq., 2013). Mukofotga asoslangan kraudfanding tadbirkorlik uchun mablag' yig'ish uchun eng mashhur kanal sifatida ko'riladi; bu erda moliyachilar o'z hissalarini evaziga pul bo'lmagan imtiyozlarga ega bo'lishadi, shu bilan birga kompaniyaning va'dalarini bajarmaslik xavfini qabul qilishadi (Shneor & Munim, 2019). Aksiyalarga asoslangan kraudfanding - bu investorlar tadbirkorga korxonadagi ulush evaziga moliyaviy yordam ko'rsatadigan moliyalashtirish turidir (Estrin va boshq., 2018). Xayriyaga asoslangan kraudfanding ko'p sonli shaxslarning, odatda internet orqali tashqi investitsiyalarga ochiq chaqiruvini tasvirlaydi (Liu va boshq., 2018). Kreditga asoslangan kraudfanding, shuningdek, P2P kreditlash deb ham ataladi, bu qarzni moliyalashtirishning yana bir turi bo'lib, bu orqali investorlar tadbirkorlarga ma'lum foiz stavkasida qarz beradilar (Agraval va boshq., 2014; Kgoroeagira va boshq., 2019). Ko'pincha tadbirkorlik sohasi bilan bog'liq bo'lmagan loyihalarni kraudfanding platformalarida

moliyalashtirishni afzal koʻrmaydilar (Valthoff-Borm va boshq., 2018). Shunday qilib, aksiyadorlik kraudfanding kichik investorlar tomonidan tadbirkorlikni moliyalashtirishni oʻrganish uchun eng empirik tarzda kraudfanding turi hisoblanadi (Ahlers va boshq., 2015).



5-rasm. Kraudfanding orqali jalb qilingan mablagʻlarni ishga tushirishning asosiy startap yoʻnalishlari¹⁴

Oʻzbekistonda kichik va oʻrta biznes uchun kraudfanding platformasi orqali pul mablagʻlari yigʻishda etakchilik qilgan sohalar oziq-ovqat va ichimliklar, dori-darmon, salomatlik va goʻzallik, transport hamda sport sohasidagi loyihalari boʻlib, buni quyidagi grafiq orqali koʻrishimiz mumkin (5-rasm).

Yuqoridagi maʼlumotlarga qaraganda, kraudfanding texnologiyasi orqali jalb qilingan jami mablagʻlarning 18 foizi oziq-ovqat, 13 foizi tibbiyot, 8 foizi salomatlik va goʻzallik, 6 foizi sport va fitnes, 5 foizi transport, va media, 4 foizi banklar va investitsiyalar hamda mobil ilovalar sohasidagi startap loyihalar uchun yoʻnaltirilgan.

Maʼlumki, asosiy maqsad kraudfanding platformasi orqali loyihalar uchun pul yigʻish emas balki, loyihalarni amalga oshirish, bu orqali kraudfanding bozorini rivojlantirish, sohani davlat tomonidan tartibga solish hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, ayol tadbirkorlar anʼanaviy moliyalashtirish bozorlarida noqulay ahvolda. Kraudfanding platformasi orqali ayol tadbirkorlar erkaklar bilan teng miqdorda moliyalashtirilishini koʻrishimiz mumkin. Yetakchi investorlar aktsiyadorlik kraudfanding bozorida ayol tadbirkorlarning moliyaviy ustunligini oshirsa-da, keyingi rivojlanish bosqichidagi korxonalarda bu ustunlik zaiflashadi. Ushbu jarayon tadbirkorning jinsi kapital kraudfanding samaradorligiga taʼsir qilishini koʻrsatib, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun hissa qoʻshadi.

¹⁴ Mulaydinov F.M. – Kichik biznes va tadbirkorlikda kraudfanding imkoniyatlari. «Academic research in educational sciences». 2021

Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, so'nggi yillarda kraudfanding mashhurlik kasb etdi va tadbirkorlikni moliyalashtirishning muhim usuliga aylana boshladi.

Kraudfanding - bu yangi biznes korxonasini moliyalashtirish uchun ko'p sonli shaxslarning oz miqdordagi kapitallaridan foydalanishdir. Kraudfunding sarmoyadorlar va ishbilarmonlarni birlashtirish uchun ijtimoiy tarmoqlar va ko'p miqdordagi veb-saytlar orqali odamlarning keng auditoriyalaridan osonlikcha foydalanishni amalga oshiradi, bu esa biznes egalari, kompaniyalar va venchur kapitalistlarning an'anaviy doirasidan tashqarida sarmoyadorlar pulini kengaytirib, tadbirkorlikni ko'paytirishi mumkin. Kraudfunding tadbirkorlarga investitsiya qilish uchun puli bo'lgan har bir kishidan yuzlab yoki millionlab mablag'larni jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Kraudfanding boshlang'ich kapitalning muhim manbai bo'lib, O'zbekistonda ayollarga yangi biznesni boshlash uchun zarur bo'lgan dastlabki pulni to'plash imkonini beradi. An'anaviy moliyalashtirish yo'llari bilan taqqoslaganda, kraudfanding investorlari ko'pincha kam professional investitsiya bilimiga ega bo'lgan yangi investorlardir va ular ko'pincha risk haqida o'ylamasdan, loyiha muallifining jinsiga ahamiyat bermagan holda, balki moliyaviy bo'lmagan mukofotlar olish asosida qaror qabul qilishadi. Shu sababli, kraudfanding yangi ayol tadbirkorlar uchun tashqi moliyalashtirishni olishning yaxshi variantidir. Kraudfanding ayol tadbirkorlarga qo'shimcha foyda keltirishi mumkin. Masalan, kraudfanding internetdan foydalanish orqali mijozlarni ham keyinchalik investorga aylantirishi mumkin.

Zamonaviy dunyo kundan-kunga axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Kundan kunga yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi kichik biznes va tadbirkorlikni yangicha ko'rinishlarini yuzaga keltirmoqda va raqamli iqtisodiyotni keng ko'lam yozishiga, jamiyatni yanada taraqqiy etishiga ko'maklashib kelmoqda. Ana shunday texnologiyalardan biri bu – kraudfanding platformasidir. Chunki, kraudfanding platformalari tufayli kichik biznes internet orqali kapitalga yo'l topdi. Shuningdek, moliyaviy yordam ko'rsatishdan tashqari, kraudfanding texnologiyasi muhim axborot mexanizmi sifatida ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M.Mirziyoev. “2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” Farmon. –T. 2018-yil 21-sentyabr.

2. Sh.M. Mirziyoev “Ilm-fan va oliy ta'lim sohasini rivojlantirish” bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosiga bag'ishlangan yig'ilishi. 2019-yil 28-may

3. Дорофеев А.Ф. Развитие человеческого капитала в аграрном секторе России. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Белгород. 2018 г. - 404 стр.

4. Sharipov M.L., Koshanova N.M. Inson kapitali mohiyati, uning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00728 Academic Research, Uzbekistan 1259 www.ares.uz

5. Навруз-Зода Б.Н., Шомиев Г.У. Исторические предпосылки развития теории человеческого капитала. Academy № 11 (14), Россия, Москва, 2016, ст.19.

6. Mulaydinov F.M. – Kichik biznes va tadbirkorlikda kraudfanding imkoniyatlari. «Academic research in educational sciences». 2021